TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2025-yil 14-oktabr

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

2-bosqich Amaliy matematika yo‘nalishi talabalariga 4-semestr uchun

« Algoritmik tillar va dasturlash » fanidan yakuniy nazorat savollari

Imtihon shakli: amaliy

Savolning tartib raqami (1-100)	Savolning qiyinlik darajasi	Savolning qanday mashg'ulotga tegishliligi	Mavzu nomeri	Savol matni
1.	1	A	1	*Fayl.txt* fayldagi 201 ta sondan *Fayl2.txt* faylga toq sonlardan nusxasini olish uchun dastur tuzing.
2.	1	A	1	F1 fayldagi 100 ta sondan F2 faylga 2 raqamdan boshlanuvchi sonlardan nusxa olish dasturini tuzing.
3.	3	A	1	F1 fayldan F2 faylga «**Y**» harfdan boshlanuvchi so'zlardan nusxa olish dasturini tuzing. F2 faylda belgilar sonini hisoblash dasturini tuzing.
4.	3	A	7	Uchburchakning uchta tomoni *a, b, c* berilgan. 1. uchburchak mavjudligini tekshirsin (aks holda "Uchburchak mavjud emas" chiqarsin); 2. Geron formulasi bilan yuzini hisoblasin; 3. burchaklarini (har bir tomonga qarama-qarshi) kosinuslar teoremasi bilan gradusda topish dasturini tuzing. Kirish: 3 4 5 Chiqish: Yuza: 6.00 Burchaklar: 36.87 53.13 90.00
5.	2	A	7	n ta butun son va qidiriladigan *x* soni kiritiladi. 1. sonlarni o'sish tartibida saralasin (sort); 2. takrorlanuvchi elementlarni olib tashlash dasturini tuzing.
6.	2	A	14	n ta butun son va qidiriladigan x soni kiritiladi. 1. eng kichik va eng katta elementni topsin; 2. massivni teskari tartibda chiqarish dasturini tuzing.
7.	3	A	7	"Egizak son". Agar ikkita tub sonlar bir-biridan ikkiga farq qilsa, ular "egizaklar" deyiladi. Masalan, 41 va 43. Barcha 10000 dan oshmaydigan egizak tub sonlar juftliklarini topuvchi funksiyani yozing.
8.	2	A	5	**for** siklidan foydalanib, quyidagi naqshni yaratish uchun C++ dasturini yozing. +

				++ +++ ++++ +++++ ++++ +++ ++ +
9.	2	A	5	A^B soni oxirgi raqamini aniqlash uchun C++ dasturlash tilida dastur tuzing. **Ma'lumotlarni kiritish:** bitta satrdan iborat bo'lib, ikkita butun A va B bo'sh joy bilan ajratilgan ($1 \le A,B \le 10000$). Chiqarish ma`lumotlarining yagona qatorida A^B ning oxirgi raqamini chop etish kerak.
10.	2	A	4	Kiritilgan butun tipdagi **n** sonni **n+nn+nnn** ko'rinishida hisoblash dasturini tuzing. Masalan: **5** **55** **555** **5+55+555** **Natija: 615**
11.	2	A	5	Butun qiymat qaytaruvchi DigitN(K, N) funksiyasini hosil qiling. (K > 0). Funksiya K sonining N – raqamini qaytarsin. Agar K soni raqamlari N dan kichik bo'lsa, minus bir qaytarsin. Shu funksiya orqali K1, K2, K3 sonlarining N – raqami aniqlansin.
12.	1	A	5	Natural n soni kiritiladi. while va for operatorlaridan foydalanmasdan, faqat goto yordamida 1 dan n gacha bo'lgan sonlar yig'indisini hisoblovchi dastur tuzing.
13.	2	A	4	Butun qiymat qaytaruvchi Fib(N) funksiyasini hosil qiling. (N > 0).

				Funksiya Fibonachchi sonlarining N – elementini qaytarsin.
14.	2	A	5	Foydalanuvchidan musbat butun son so’raladi. Agar kiritilgan son musbat bo’lmasa, goto yordamida “Xato! Qayta kiriting” xabari chiqarilib, kiritish qaytadan so’raladi. To’g’ri son kiritilgach, uning kvadratini chiqarish dasturini tuzing.
15.	2	A	5	n × m o’lchamli butun sonlar massivi berilgan. Massivdagi birinchi manfiy elementni topib, uning indekslarini (i, j) chiqaring va ikkala tsikldan ham goto yordamida bir yo’la chiqing. Manfiy element bo’lmasa, “Manfiy element yo’q” xabarini chiqaring.
16.	2	A	6	n! ($n \leq 12$) qiymatini goto operatori yordamida hisoblovchi dastur tuzing. n = 0 bo’lganda natija 1 bo’lishini hisobga oling.
17.	2	A	7	Natural n soni kiritiladi ($n \geq 2$). for, while va do-while operatorlaridan foydalanmasdan, faqat goto va shartli operator if yordamida 2 dan n gacha bo’lgan barcha tub sonlarni chiqaring va ularning sonini aniqlang. Ichki sikldan bo’luvchi topilgan zahoti goto orqali keyingi sonni tekshirishga o’ting.
18.	1	A	7	Ikkita o’sish tartibida saralangan A (n ta element) va B (m ta element) massivlari berilgan. Ularni o’sish tartibi saqlangan holda bitta C massiviga birlashtiring. Dasturda hech qanday sikl operatori ishlatilmasin, faqat goto metkalari ishlatilsin: har bir metka bir holatni bildirsin.
19.	1	A	14	Natural n soni kiritiladi. for, while va do-while operatorlaridan foydalanmasdan, faqat goto yordamida shu sonning raqamlari yig’indisini va raqamlari teskari tartibda yozilgan sonni toping.
20.	2	A	14	4 xonali N natural son palindromligini, ya’ni o’ngdan chapga va chapdan o’ngga bir xilda o’qilishini tekshirish uchun dastur tuzing. **Kiritiluvchi qiymatlar:** INPUT.TXT da N son (1000<=N<=9999) kiritilgan. **Chiqariluvchi qiymatlar:** OUTPUT.TXT da N palindrom bo’lsa, “HA” so’zini, aks holda “YO’Q” so’zini chiqaring.
21.	2	A	8	Arifmetik progressiyaning 1- va 2-elementlari berilgan. Shu progressiyaning elementini tartib raqamiga ko’ra aniqlovchi dastur tuzing.

				Kiritish: INPUT.TXT da 3 ta son berilgan – progressiyaning 1-elementi A1 ($1 \le A1 \le 1000$), 2-elementi A2 ($1 \le A2 \le 1000$) so'ralgan element tartib raqami N ($1 \le N \le 1000$). **Chiqarish:** OUTPUT.TXT da arifmetik progressiyaning N-elementi chiqarildi.
22.	2	A	9	Elementlari alohida so'zlardan iborat turlashgan fayl mavjud. Agar so'z "k" harfi bilan boshlansa, uni "K" harfi bilan almashtiring.
23.	1	A	15	"S" harfi naqshini chop etish uchun C++ dasturini yozing. **** * * *** * * ****
24.	2	A	15	Bo'sh joylar bilan yozilgan bir qator matn (getline) kiritiladi. Dastur quyidagilarni chiqarsin: 1. matn uzunligi (length); 2. harflar, raqamlar, probellar va bosh harflar soni (isalpha, isdigit, isspace, isupper).
25.	2	A	14	Sonli turlashgan fayl mavjud. Toping (hamma holatlarda fayl hajmi ma'lum emas): a) faylning birinchi va ikkinchi sonlar yig'indisini; b) faylning k–nchi va q–chi sonlari yig'indisi; v) faylning birinchi va oxirgi sonlari ko'paytmasini;
26.	2	A	13	Abiturient (ismi, tug'ilgan yili, yig'ilgan ball, attestat o'rta bali) strukturasini yarating. Struktura turidagi massiv yarating va faylga yozing. Ko'rsatilgan raqamli elementni olib tashlang va ko'rsatilgan familiyali elementdan so'ng element qo'shing.
27.	2	A	7	*mxm* matritsani *m* o'lchamli vektorga ko'paytirish dasturini tuzing.
28.	2	A	8	*mxm* matritsani *rangini* aniqlovchi dasturini tuzing.
29.	1	A	3	To'rt xonali natural son berilgan. Ushbu sonning oxirgi raqamini boshiga o'tkazish dasturini tuzing (fayllardan foydalaning).

30.	1	A	3	To’rt xonali natural son berilgan. Ushbu sonning raqamlari yig’indisini topish dasturini tuzing (fayllardan foydalaning).
31.	2	A	3	Uchta musbat a, b va c sonlar berilgan. Ular arifmetik yoki geometrik progressiya ketma-ketligini tashkil etishini aniqlang. Agar tashkil etsa, u holda progressiyaning ayirmasi yoki bo’linmasini topish dasturini tuzing. Agar progressiyani tashkil etmasa o’zgaruvchilarga yangi qiymat kiriting. (Konsoldan chiqmagan holda)
32.	1	A	3	Natural son berilgan. Uning maksimal va minimal raqamlarining yig’indisi a soniga karrali bo’lishini aniqlang.
33.	2	A	3	a dan b gacha bo’lgan barcha butun sonlardan k ga teng bo’linuvchisi bo’lgan sonlarni toping. Agar bu sonlar mavjud bo’lmasa, u holda mos xabarlar chop qilinsin.
34.	3	A	3	$a_1,a_2,\dots ,a_n$ haqiqiy sonlar berilgan. Eng katta va eng kichik elementlar o’rnini almashtiring.
35.	1	A	4	O’lchami M bo’lgan haqiqiy sonli massiv berilgan. Unda manfiy, musbat va nol elementlar qanchaligini hisoblash dasturini tuzing.
36.	1	A	5	$a_1,a_2,\dots ,a_n$ haqiqiy sonlar ketma-ketligi berilgan. Uning berilgan Z sonidan katta barcha hadlarini shu son bilan almashtiring. Almashishlar miqdorini hisoblang.
37.	1	A	5	$a_1,a_2,\dots ,a_n$ natural sonlar ketma-ketligi berilgan. Bu ketma-ketlikdagi juft sonlardan massiv yarating. Agar bunday sonlar mavjud bo’lmasa, bu haqda xabar berilsin.
38.	1	A	4	m x n o’lchamli matritsa berilgan. C++ dasturlah tilida elementlari kamayish tartibida oylashgan ustunlar sonini aniqlovchi programma tuzilsin.
39.	1	A	4	m x n o’lchamli matritsa berilgan. Elementlari kamayish yoki o’sish tartibida kiritilgan satrlar orasidan, eng kichik qiymatni aniqlovchi programma tuzilsin. Agar tartiblangan satr bo’lmasa, nol chiqarilsin.
40.	3	A	2	Uch xonali natural son berilgan. C++ dasturlash tilida ushbu sonning oxirgi raqamini boshiga o’tkazish uchun **oxirgi_raqam** nomli

				funksiyadan foydalaning.
41.	3	A	2	Uch xonali natural son berilgan. C++ dasturlash tilida ushbu sonning raqamlari yig'indisini hisoblash uchun **r_yigindi** nomli funksiyadan foydalaning.
42.	3	A	2	Berilgan uchta son asosida, ulardan ixtiyoriy ikkitasining yig'indisi musbat ekanligini aniqlovchi **musbat** nomli funksiya tuzing va dasturda qo'llang.
43.	3	A	2	Ixtiyoriy sonning 5-darajasini hisoblovchi PowerA5 nomli funksiya hosil qiling. PowerA5 funksiyasi orqali D, B, C haqiqiy sonlarining va A, E butun sonlarining 5-darajasini hisoblovchi dastur tuzilsin.
44.	3	A	2	Ixtiyoriy sonning 7-darajasini hisoblovchi PowerA7 nomli makros hosil qiling. PowerA7 funksiyasi orqali A, B, C haqiqiy sonlarining va D, E butun sonlarining 7-darajasini hisoblovchi dastur tuzilsin.
45.	2	A	2	To'g'ri burchakli uchburchakning katetlari A va B (musbat haqiqiy sonlar) berilganda, uning perimetrini qaytaruvchi TriangleP(A, B) funksiyasini yozing. Funksiyadan foydalanib, uchta uchburchakning perimetrini toping (natija ikki kasr raqami bilan chiqarilsin). Misol: A = 3, B = 4 → 12.00.
46.	2	A	2	Musbat butun K soni kvadrat bo'lsa true, aks holda false qaytaruvchi IsSquare(K) mantiqiy funksiyasini yozing. Funksiyadan foydalanib, klaviaturadan kiritilgan uchta sonni tekshiring va har biri uchun "HA" yoki "YO'Q" chiqaring. Misol: 16 → HA, 15 → YO'Q.
47.	2	A	2	Butun qiymat qaytaruvchi DigitN(K,N) funksiyasini hosil qiling. (K>0). Funksiya K sonining N – raqamini qaytarsin. Agar K soni raqamlari N dan kichik bo'lsa, minus bir qaytarsin. Shu funksiya orqali K1, K2, K3 sonlarining N – raqami aniqlansin.
48.	1	A	2	Butun qiymat qaytaruvchi FIB(N) funksiyasini hosil qiling. (N>0). Makros Fibonachchi sonlarining N – elementini qaytarsin.
49.	1	A	13	C belgisi va S satr berilgan. C++ dasturlash tilida S satrida uchragan har

				bir C belgisini 2 marta orttiruvchi dastur tuzilsin.
50.	2	A	13	C belgisi va S1, S2 satrlari berilgan. S1 satrida uchragan har bir C belgisidan oldin S2 satrini qo'shib, hosil bo'lgan satrni chiqaruvchi C++ dasturi tuzilsin. Qo'shilgan S2 ichidagi belgilar qayta tekshirilmasin.
51.	2	A	13	S1, S2 va S3 satrlari berilgan. S1 satrida S2 satri oxirgi marta uchragan joyni S3 satri bilan almashtirib, hosil bo'lgan satrni chiqaruvchi C++ dasturi tuzilsin. Agar S2 satri S1 da uchramasa, S1 o'zgarishsiz chiqarilsin. Misol: S1 = "abcabcab", S2 = "abc", S3 = "XY" → "abcXYab".»
52.	1	A	13	Probel bilan ajratilgan so'zlardan iborat satr berilgan (so'zlar orasida bir nechta probel bo'lishi mumkin). Satrdagi so'zlar sonini qaytaruvchi funksiya yozing va undan foydalanib, so'zlar sonini aniqlovchi C++ dasturi tuzing. Misol: " Salom dunyo " → 2.»
53.	2	A	7	Ikkita butun argumentdan kattasini qaytaradigan Max(x, y) funksiyasini yozing. x va y qiymatlari klaviaturadan kiritiladi, natija g.txt fayliga yozilsin. Misol: 5 9 → g.txt da: 9.
54.	2	A	7	Ikki sonning yig'indisini qaytaradigan Yigindi(a, b) funksiya shablonini yozing. Shablonni butun (int) va haqiqiy (double) sonlar uchun sinab ko'ring, natijalar f.txt fayliga yozilsin. Misol: 3 4 → 7; 1.5 2.5 → 4.
55.	2	A	8	Uchta sonning ko'paytmasini qaytaradigan Kupaytma(a, b, c) funksiya shablonini yozing. Shablonni butun (int) va haqiqiy (double) sonlar uchun sinab ko'ring, natijalar f.txt fayliga yozilsin. Misol: 2 3 4 → 24; 1.5 2 4 → 12.
56.	3	A	7	Uchta butun sonning EKUBini qaytaradigan EKUB(a, b, c) funksiya shablonini yozing (std::gcd ishlatilmasin). Shablonni int va long long turlari uchun sinab ko'ring, natijalar f.txt fayliga yozilsin. Sonlar musbat deb hisoblansin. Misol: 12 18 24 → 6.
57.	2	A	8	Ikkita sonning EKUKini qaytaradigan EKUK (a, b) funksiyasini hosil qiling. Dasturdan olinadigan natijani *fayl.txt* faylga yozing.

58.	2	A	7	Ikki sonning o'rinlarini almashtiruvchi Swap(a, b) funksiyasini hosil qiling. Dasturdan olinadigan natijani *swap.docx* faylga yozing.
59.	2	A	11	N natural soni berilgan (N>1). 3^k > N shartni qanoatlantiruvchi eng kichik butun k sonini aniqlovchi dastur tuzilsin.
60.	1	A	1	C++ dasturlash tilida F1 fayldagi 25 ta sondan F2 faylga 1 raqamdan boshlanuvchi sonlardan nusxa olish dasturini tuzing.
61.	2	A	1	C++ dasturlash tilida F1 fayldagi 16 ta sondan F2 faylga oxirgi raqami 9 bo'lgan sonlardan nusxa olish dasturini tuzing.
62.	2	A	1	C++ dasturlash tilida F1 fayldagi 15 ta sondan F2 faylga oxirgi raqami 8 bo'lgan sonlardan nusxa olish dasturini tuzing.
63.	2	A	1	C++ dasturlash tilida F1 fayldagi 10 ta sondan F2 faylga oxirgi raqami 7 bo'lgan sonlardan nusxa olish dasturini tuzing.
64.	3	A	1	F1 fayldan F2 faylga «**P**» harfdan boshlanuvchi so'zlardan nusxa olish dasturini tuzing. F2 faylda belgilar sonini hisoblang.
65.	2	A	5	m ta ishchi haqidagi ma'lumotlarni o'zida saqlovchi fayl hosil qiling. 21 yoshdan kichik bo'lgan ishchilarni chiqaruvchi programma tuzilsin.
66.	1	A	13	Matnli fayl berilgan. Undagi barcha bo'sh satrlar ikkilantirilsin.
67.	1	A	9	Fayl nomi va N butun soni berilgan (N>1). Berilgan nomdagi fayl hosil qilinsin va unga N ta birinchi musbat juft sonlari chop qilinsin (2,4,6,…).
68.	2	A	9	Elementlari soni 4 dan ko'p bo'lgan butun sonlardan iborat fayl berilgan. Ushbu faylning birinchi, ikkinchi, oxirgi va oxiridan bitta oldingi elementlari chop qilinsin.
69.	2	A	13	Satr va ikkita belgi (eski va yangi) kiritiladi. std::replace() funksiyasi yordamida satrdagi barcha eski belgilarni yangi belgi bilan almashtiruvchi C++ dasturi tuzilsin. Misol: "salom dunyo", 'o', '' → "salm duny*".
70.	2	A	13	Nuqta bilan tugovchi satr berilgan (so'zlar probel bilan ajratilgan, ular orasida bir nechta probel bo'lishi mumkin; nuqta so'zga kirmaydi). Satrda nechta so'z borligini aniqlovchi C++ dasturi tuzilsin. Misol: "Men dasturlashni o'rganyapman." → 3.
71.	2	A	13	Probel bilan ajratilgan so'zlardan iborat satr berilgan (so'zlar orasida bir nechta probel bo'lishi mumkin; tinish belgilari yo'q deb hisoblansin).

				Eng qisqa va eng uzun so’zlarning uzunliklarini chiqaruvchi C++ dasturi tuzilsin. Misol: “Men dasturlashni o’rganyapman” → 3 12.
72.	2	A	13	Tarkibida ikki nuqta (:) belgisi bo’lgan satr kiritiladi (probel bo’lishi mumkin). Birinchi ikki nuqtagacha nechta belgi borligini aniqlovchi C++ dasturi tuzilsin. Misol: “Ism:Ali” → 3.
73.	2	A	3	Berilgan satrdagi barcha **na** qismiy satrni **nad** qismiy satr bilan almashtirish dasturini tuzing.
74.	2	A	13	Satr berilgan. Unda **abc** qismiy satr necha marta uchrashini aniqlang. Agar uchramasa “**No**” yozuvi ekranga chiqarish dasturini tuzing.
75.	3	A	8	Berilgan massivning eng kichik elementi va uning o’rni (pozitsiyasi) aniqlansin. Masalan: a[]={1,6,3,8,5,6,0,1,3,4}; Javob. Min.element=0, o’rni=6.
76.	3	A	8	Biror bir massiv kiritilsin va shu massivning eng kichik va eng katta elementlari orasidagi elementlar ekranga chiqarilsin. Masalan: a[]={2,3,1,3,4,5,6,7,4,3,5} Javob: 1,3,4,5,6,7; b[]={-1,2,3,7,2,1, -3,-4, 2,1} Javob: 7,2,1,-3,-4
77.	2	A	8	Ixtiyoriy n o’lchovli massiv kiritilsin, shu massiv elementlarining o’rta arifmetigi topilsin va massivning shu o’rta arifmetikdan kichik elementlari nolga aylantirilsin. Misol uchun massiv a[]={1,2,1,4,3,1,1,7,12,1} bo’lsa, natija: a[]={0,0,0,4,0,0,0,7,12,0} bo’lishi kerak.
78.	2	A	9	(nxn) o’lchovli massiv kiritilsin. C++ dasturlash tilida uning satrlari va ustunlarining elementlari yig’indisi topish dasturini tuzing. Dinamik xotiradan foydalaning.
79.	1	A	10	n × n o’lchamli kvadrat massiv kiritilsin. Asosiy diagonal va undan

				pastda joylashgan elementlar nolga, diagonaldan yuqorida joylashgan elementlar birga almashtirilsin va natijaviy massiv ekranga chiqarilsin. Misol: n = 3 → [0 1 1; 0 0 1; 0 0 0].
80.	2	A	10	n × n o'lchamli kvadrat massiv kiritilsin. Massivning chetki elementlari (birinchi va oxirgi satr, birinchi va oxirgi ustun) hamda asosiy diagonalidagi elementlari nolga almashtirilsin va hosil bo'lgan massiv elementlari yig'indisi topilsin. Misol: n = 4, elementlari 1 dan 16 gacha → yig'indi 17.
81.	1	A	10	(nxm) o'lchovli massiv kiritilsin, undan eng kichik va eng kata elementlar topilib, ular necha marotaba ishtirok etganligi topilsin.
82.	1	A	10	n o'lchovli massiv kiritilsin va shu massiv elementlarining o'rtacha qiymati hisoblash dasturini tuzing. Dinamik xotiradan foydalaning.
83.	2	A	9	N x M o'lchamli matritsaning har bir ustunidagi eng katta (Max) elementni aniqlash dastur tuzing.(C++ dasturlash tilida)
84.	2	A	5	C++ dasturlash tilida N x N o'lchamli kvadrat matritsaning asosiy diagonalidan yuqorida joylashgan elementlar yig'indisini hisoblash dasturini tuzing.
85.	1	A	5	C++ dasturlash tilida N x M matritsadagi barcha manfiy elementlarni 0 bilan almashtiring va hosil bo'lgan matritsani ekranga chiqarish dasturini tuzing.
86.	1	A	6	C++ dasturlash tilida N x N matritsaning asosiy diagonalidagi elementlarni yordamchi diagonalidagi elementlar bilan o'rnini almashtirish dastirini tuzing.

87.	2	A	7	C++ dasturlash tilida N x M matritsaning juft indeksli satrlarida joylashgan elementlarining o’rtacha arifmetik qiymatini hisoblash dasturini tuzing.
88.	2	A	8	N x M matritsada foydalanuvchi kiritgan C++ dasturlash tilida X soni necha marta uchrashini (takrorlanish sonini) aniqlovchi dastur tuzing.
89.	2	A	6	N x N o’lchamli matritsaning faqat chegaraviy (ramka bo’ylab) elementlari yig’indisini hisoblash dasturini tuzing.
90.	3	A	7	Foydalanuvchi kiritgan satrning palindrom (chapdan ham, o’ngdan ham bir xil o’qilishi, masalan: 'alla', 'radar') ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
91.	3	A	8	C++ dasturlash tilida kiritilgan matndagi barcha unli harflarni (a, e, i, o, u) '*' belgisi bilan almashtiruvchi dastur tuzing.
92.	2	A	6	C++ dasturlash tilida matndagi eng uzun so’zni va uning uzunligini aniqlovchi dastur tuzing.
93.	2	A	7	C++ dasturlash tilida foydalanuvchi kiritgan satrdagi barcha bo’shliqlarni (probellarni) o’chirib tashlaydigan dastur tuzing.
94.	1	A	8	n butun soni berilgan (n > 1). Quyidagi ketma-ketlikning dastlabki n ta hadini chiqaring: A[1] = 1, A[2] = 2, A[k] = (A[k−2] + 2·A[k−1]) / 3, k = 3, 4, … (ikki kasr raqami bilan). Misol: n = 4 → 1, 2, 1.67, 1.78.
95.	2	A	6	C++ dasturlash tilida kiritilgan satrni teskari tartibda (mirror/reverse) chiqaruvchi dastur tuzing (masalan: 'salom' -> 'molas').
96.	2	A	7	Satr kiritiladi (probel bo’lishi mumkin). Satrdagi barcha raqamlarni (0–9) ajratib olib, ulardan yangi satr hosil qiluvchi va shu raqamlarning yig’indisini hisoblovchi C++ dasturi tuzilsin. Raqam bo’lmasa, bo’sh satr

				va 0 chiqarilsin. Misol: “a1b2c3” → “123”, 6.
97.	3	A	6	Ikkita N × M o’lchamli (N, M ≤ 100) butun sonli A va B matritsalar kiritiladi. Ularning yig’indisini (C = A + B) hisoblab, C matritsani satrma-satr ekranga chiqaruvchi C++ dasturi tuzilsin. Misol: A = [1 2; 3 4], B = [5 6; 7 8] → C = [6 8; 10 12].
98.	3	A	7	Ikkita turli butun son berilgan. Shu sonlardan kichigi va kattasining tartib raqamlarini (birinchi yoki ikkinchi son) aniqlovchi funksiya yozing. Misol: 7 va 3 → kichigi 2-son, kattasi 1-son.
99.	2	A	8	Tekislikda 2 ta aylana berilgan. Ular kesishishi yoki kesishmasligini aniqlang va grafigini chizish dasturini tuzing. **Ma’lumotlarni kiritish:** ikki qatordan iborat. Har bir satrda doira haqida ma'lumot mavjud - uning markazining x va y koordinatalari (absolut qiymati 500 dan oshmaydigan butun sonlar) va radius (butun son 1 ≤ r ≤ 100). Chiqarish ma’lumotlarida aylanalarda kamida bitta umumiy nuqta bo’lsa, "YES" ni, aks holda "YO’Q" ni chop eting.
100.	1	A	7	Konusning asosi radiusi r va balandligi h berilgan. Konusning hajmi va yon sirt yuzasini birdaniga qaytaruvchi funksiya yozing va dasturda qo’llang (π uchun math.pi dan foydalaning). Misol: r = 3, h = 4 → hajmi 37.70, yon sirti 47.12.